

FRAZELOGIYAGA KOGNITIV YONDASHUV

A. Jo'raqulov ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning kognitiv yondashuv asosida o'rganilish zarurati ta'kidlanadi. Nomlanishning frazeologik turi olam manzarasini murakkab obrazli va hissiy idrok etish bilan bog'liq jihatlarini aks ettirilishi muhim ekanligi bayon etiladi. Frazeologiya va paremiologiyani o'rganishda kognitiv yondashuv til sohiblarining bilimlari va tajribasini yetkazish va saqlash uchun xizmat qilishi uqtiriladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, nutq birligi, frazeologik birlik, lingvistika, metafora, denotativ ma'no, konnotativ pragmatik ma'no, polisemiya

doi: <https://doi.org/10.2024/6z0nqp11>

Tayyor nutq birliklari shaklida qabul qilingan leksik jihatdan bo'linmaydigan bir butun, tarkibi va tuzilishi jihatidan barqaror, yaxlit ma'noli so'z birikmalariga qiziqish har doim ortib borgan. Frazeologik birliklar tilni sayqallaydigan, jozibali qilib ko'rsatadigan vositalar sifatida qabul qilingan. Keyinchalik frazeologik birliklar lingvistik semantika doirasida o'rganila boshlandi. Atash xususiyatiga ega bo'lgan til birliklarining hosil qilish va shu jarayonning natijasini nomlash, ya'ni nominatsiyadir. Atash lingvistik nazariyasining rivojlanishi bilan frazeologiya masalasi yangicha tus ola boshladi. Tilshunos olimlarni frazeologik birliklarning tilda paydo bo'lish jarayoni qiziqtiradi. Frazeologik birliklarning shakllanishi ko'pincha majoziy va metaforik asos bilan tavsiflanadi (Yaxshiyev 2022: 43).

Atash, nomlash nazariyasi til birliklarining yagona ahamiyatli xususiyatini va ularning gnoseologik mohiyatini tan olishga asoslangan. Nomlash - bu denotativ muayyan belgilarini - moddiy va ma'naviy soha obyektlari va jarayonlarining xossalari, sifatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi tushuncha-ma'noning lisoniy belgisiga berishdir (Telia 1977: 101).

Odatda nomlashning asosiy va ikkilamchi turlari qabul qilingan bo'lib, o'z navbatida, ikkilamchi nomlar ikki turga bo'linadi: bevosita nomlash va bilvosita (metafora, metonimiya) nomlash. D.O. Dobrovolskiy ikkinchi darajali nomlashga frazeologik birliklar qo'shilishi kerak deb hisoblaydi (Dobrovolskiy 1990: 62). Nomlanishning frazeologik turi dunyoni murakkab obrazli va hissiy idrok etish bilan bog'liq jihatlarini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, frazeologik birliklar an'anaviy ikkilamchi, ya'ni bilvosita nominatsiya tushunchasi bilan bog'liqdir, chunki bu alohida frazeologik tur kiritilgan atashning bilvosita turidir.

Frazeologik birliklarning nominativ xususiyati nomlash predmetining nomlanayotgan obyektga munosabatiga asoslanadi. Bunday munosabat sub'ektni baholash, uning ushbu ob'ektga nisbatan subyektiv qarashlari, his-

¹ Jo'raqulov Abror Raufovich, SamDCHTI nemis tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

tuyg'ulari bilan birga ifodalanadi. Frazeologik birliklarning semantikasida murakkab nomlanish natijasida denotativ ma'no bilan birga, aslida denotativ ma'nodan ajralmas, obyektiv konnotativ pragmatik ma'no yuzaga keladi. Frazeologik birliklarning pragmatik ahamiyati ularning individualligidadir.

Ikkilamchi nomlanish uchun zarur shartlardan biri bu polisemiya yoki ko'p ma'nolilik hodisasidir, chunki bir xil so'z uchun turli xil, ammo ma'lum darajada bog'liq ma'nolarning mavjudligi metaforalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

V.M. Mokienkoning ta'kidlashicha, "dunyo juda ko'p sonli tushunchalarga bo'lingan va agar ularning har biri maxsus belgi bilan belgilangan bo'lsa, unda inson xotirasi bunday ulkan miqdordagi belgilarni eslab qolish vazifasini bajara olmaydi" (Mokienko 1999: 70). Ko'p ma'nolilik ongning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, shuning uchun u ongning mulki sifatida tilning tabiati bilan oldindan belgilanadi (Krivonosov 2001: 737). Binobarin, so'zda oldindan turli ma'nolar mavjud bo'lib, ehtiyojga, vaziyatga qarab bu ma'nolar nutqda qo'llaniladi.

"Agar ko'p ma'nolilik bo'lmaganida, til ifodalilikdan, milliy o'ziga xoslikdan, har qanday harakatdan mahrum bo'lgan avtomatik qurilmaga aylangan bo'lar edi, chunki inson tafakkuri doimiy harakatda bo'lib, takomillashib boradi va o'zining yangi moddiy shakllarini talab qiladi".

Shunga qaramay, bir narsani yodda tutish kerakki, barcha so'zlar bir leksik guruhdan ikkinchisiga bir xil darajada o'tmaydi.

Demak, alohida so'zlarning lug'aviy ma'nolari ularning mazmunini to'liq aks ettirmaydi, faqat boshqa so'zlar bilan qo'shibgina namoyon bo'ladi. Metaforik birliklar bunga yaqqol misoldir.

Metaforizatsiyaning kognitiv jarayoni inson duch keladigan barcha vaziyatlar, holatlar, voqea-hodisalarni nomlash uchun insonning neyropsixologik ehtiyojiga asoslanadi. Odam allaqachon ma'lum bo'lgan va biz nom bergan hodisa, obyektga o'xshatishga intiladi, bu esa o'z navbatida metafora paydo bo'lishiga olib keladi.

Bunday mulohazalar uchun asosni biz I.G.Olshanskiy ilmiy qarashlarida topamiz. U metaforik ijod va tafakkur o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni isbotlagan, bu esa o'z navbatida qiyosiy konstruksiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Uning yozishicha, til boshidanoq inson o'zini tabiat bilan bog'laganda haqiqiy metafora paydo bo'lishini va u dunyoni o'zlashtirishning muhim vositasiga aylanishini aytadi.

Keyinchalik metafora-ramzlar paydo bo'ladi (qahramonlik dostonlari, miflar), shundan so'ng mavjud nomlar ekstralingvistik voqelikning yangi obyektlariga ko'chirilishi bilan poetik metafora davri boshlanadi.

Frazeologik birliklar, maqollar, matallarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganishda kognitiv yondashuv ushbu lingvistik birliklarni barqaror asosiy tuzilmalari sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Ular "kognitiv tizimda kontseptsiya rivojlanishining ishonchli ko'rsatkichi" (Safarov 2006: 79) hisoblanadi va ona tilida so'zlashuvchilarning bilimlarini, tajribasi va milliy-madaniy xususiyatlarini aniq yetkazish va saqlash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Добровольский Д.О. Сопоставительная фразеология (на материале германских языков). - Владимир: ВГПИ им. Лебедева-Полянского, 1990. -77 с.

- [2]. Кривоносов А.Т. Система классов слов как отражение структуры языкового сознания. Москва - Нью-Йорк: ЧеРо, 2001. - 845 с.
- [3]. Мокиенко В.М. В глубь поговорки. - СПб., 1999. - 224 с.
- [4]. Ольшанский И.Г. Лексическая полисемия: возможности и перспективы ее исследования с когнитивных позиций / Когнитивная семантика. Часть II. - Тамбов, 2000. - С. 17-19.
- [5]. Сафаров Ш.С. Когнитив тилишунослик. – Жиззах: Сангзор наириёти, 2006. – 96 б.
- [6]. Телия В.Н. Вторичная номинация и ее виды//Языковая номинация. -М.:Наука, 1977. С. 129-222.
- [7]. Yaxshiyev A.A. Grundlagen der Allgemeinen und deutschen Phraseologie. – Samarkand: SamSIFS, 2022. – 64 S.